

“mybank-uz” MOBIL ILOVASIDAN FOYDALANGAN HOLDA ONLAYN MIKROQARZ TAQDIM ETISH TO’G’RISIDAGI OMMAVIY OFERTA

Ommaviy ofertaning quyida bayon etilgan matni ATB “Madad Invest Bank” banki (keying o’rinlarda - Bank)ning jismoniy shaxslar doirasiga yo’naltirilgan O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq Onlayn mikroqarz taqdim etish to’g’risidagi Shartnoma (keying o’rinlarda - Shartnoma) tuzish bo’yicha rasmiy ommaviy taklifi hisoblanadi.

Mazkur Ommaviy ofertada quyidagi Termin va tushunchalardan foydalaniladi:

Identifikatsiyalangan Mijoz (keyingi o’rinlarda - Mijoz) – shaxsni tasdiqlovchi hujjat, mobil telefon raqamiga asosan Bank tomonidan belgilangan tartibda identifikatsiyalangan, Bankda hisobvaraqa ega bo’lgan hamda Bank filiallarida masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimlarida ro’yxatdan o’tgan va identifikatsiyalangan foydalanuvchi hisoblangan voyaga yetgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs;

Masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimi (shuningdek keyingi o’rinlarda – MBXK tizimi) – foydalanuvchilarga masofadan turib Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi dasturiy-texnik vositalar majmuasi, shu jumladan “mybank-uz” mobil ilovasi;

Onlayn mikroqarz – mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisob raqamiga pul mablag’larini kiritish yo’li bilan MBXK tizimlaridan foydalangan holda taqdim etiladigan mikroqarz;

Talab qilib olinguncha depozit hisob raqami – Mijoz MBXK tizimlari orqali boshqaradigan Bankda ochilgan hisobvaraqa (20206);

Dastlabki ariza – Bank tomonidan Mijozning kredit to’lash qobiliyatini hisobga olgan holda Onlayn mikroqarz taqdim etish imkoniyati to’g’risidagi Mijozning so’rovi;

Mijozni verifikatsiyalash – Bank tomonidan olingan va bankda mavjud bo’lgan Mijoz shaxsiy ma’lumotlarining to’liqligini, to’g’riligini, aktualligini tekshirish;

Kredit olish to’g’risidagi ariza – Mijozning mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblab chiqilgan moliyalashtirish mumkin bo’lgan summa doirasida Onlayn mikroqarz olish to’g’risidagi MBXK tizimida taqdim etilgan arizasi.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Mijozga Kredit olish to’g’risidagi arizada Mijoz tomonidan ko’rsatilgan summada, biroq Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblab chiqilgan moliyalashtirish mumkin bo’lgan summadan ortiq bo’lmagan miqdorda Onlayn mikroqarz taqdim etadi, Mijoz esa Bankka olingan Onlayn mikroqarz summasini qaytarish va mazkur Ommaviy oferta shartlariga muvofiq mikroqarzdin foydalanganlik uchun foizlarni to’lash majburiyatini oladi.

II. KREDITLASH SHARTLARI VA KREDIT UCHUN TO’LOV

2.1. Bitta Mijoz uchun Onlayn mikroqarzning maksimal summasi – 30,0 mln. so’mgacha (o’ttiz million).

2.2. Kredit ma’qullangan taqdirda bitta Mijoz uchun Onlayn mikroqarzning minimal summasi – 500 000 (Besh yuz ming) so’m.

2.3. Onlayn mikroqarzni taqdim etish maksimal muddati – 36 oy.

2.4. Foiz stavkasi – yillik 34,9%.

2.5. Onlayn mikroqarz yuzasidan asosiy qarz bo’yicha muddati o’tgan qarzдорlikka nisbatan muddat kechiktirilgan birinchi kundan boshlab mazkur Ommaviy ofertaning 2.4-bandida ko’rsatilgan stavka 1,5 marotaba oshirilgan tarzda foiz hisoblanadi.

2.6. Ta'minotga doir talablar – kredit qaytarilmasligi xavfini sug'urtalash polisi.

2.7. Taqdim etish usuli – Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisob raqamiga pul mablag'larini kiritish yo'li bilan.

2.8. So'ndirish tartibi – Har bir Onlayn mikroqarz bo'yicha Mijozning MBXK tizimi interfeysida mavjud bo'lgan to'lov grafigi bo'yicha har oyda.

III. ONLAYN MIKROQARZNI TAQDIM ETISH TARTIBI

3.1. Onlayn mikroqarz olish uchun Mijoz MBXK tizimi interfeysida mazkur Ommaviy oferta bilan tanishib chiqishi va uni akseptlashi (qabul qilishi) hamda Dastlabki arizani taqdim etish yo'li bilan Onlayn mikroqarz taqdim etish imkoniyati to'g'risida so'rashi lozim.

3.2. Dastlabki ariza olinganidan so'ng Bank Mijozga MBXK tizimi interfeysida mazkur Ommaviy oferta shartlarida moliyalashtirish mumkin bo'lgan summa to'g'risida yoki verifikatsiya jarayoni muvafaqqiyatsiz o'tkazilganligi yoxud Mijozning kredit to'lov qobiliyati yetarli emasligi sababli Onlayn mikroqarz taqdim etish imkoniyati mavjud emasligi to'g'risida xabar beradi.

3.3. Mazkur Ommaviy ofertani akseptlash orqali Mijoz Onlayn mikroqarzni ko'rib chiqish, taqdim etish va so'ndirish jarayoni bilan bog'liq maqsadlarda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq zarur hajmdagi Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini rasmiy manbalardan so'rash, olish, qayta ishlash va berishga o'z roziligini bildiradi va bu borada Bankka vakolat beradi.

3.4. Mijozni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan summasi Mijoz to'g'risidagi Bankda mavjud bo'lgan axborot asosida Mijozning kredit to'lov qobiliyatini baholash orqali aniqlanadi. Mijozning kredit to'lov qobiliyatini baholash metodikasi Bankning tijorat siri hisoblanadi va sir saqlanadi.

3.5. Dastlabki arizani taqdim etishda Mijoz o'zining bir yoki bir necha bank kartalarini ko'rsatadi va muddati o'tgan qarzdorlik hisobiga nizosiz tartiba ulardan pul mablag'larini yechib olishga o'z roziligini bildiradi hamda bankka ushbu huquqni taqdim etadi.

3.6. Mijoz mazkur Ommaviy oferta shartlarida kreditni so'ndirish sanasini ko'rsatgan holda Bank tomonidan taklif etilgan moliyalashtirish mumkin bo'lgan summadan oshmaydigan summada Kredit olish to'g'risida ariza berish yoki Onlayn mikroqarz olishni rad qilish huquqiga ega.

3.7. Mijozning Kredit olish to'g'risidagi arizasi kredit summasini, muddatini, foiz stavkasi va Onlayn mikroqarzni so'ndirish sanasini o'z ichiga oladi va Mijoz tomonidan akseptlangan mazkur Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

3.8. Kredit olish to'g'risidagi arizaning taqdim etilishi Mijozning Kredit olish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan shartlarda Onlayn mikroqarz olishga rozi ekanligining tasdig'i hisoblanadi, shundan so'ng Onlayn mikroqarz shartlari Bank va Mijoz o'rtasida kelishilgan hisoblanadi.

3.9. Onlayn mikroqarz taqdim etish to'g'risidagi shartnoma mazkur Ommaviy oferta Mijoz tomonidan akseptlangan paytdan e'tiboran va Kredit olish to'g'risidagi arizani taqdim etish orqali Onlayn mikroqarz shartlari kelishilganidan so'ng tuzilgan hisoblanadi.

3.10. Mijoz (birinchi marta onlayn mikroqarz olish uchun ariza yuborayotgan mijoz yoki boshqa qurilma orqali hisobiga yangi kirish qilgan mijoz) 3.6-bandda ko'rsatilgan huquqlardan foydalangan holda kredit olish uchun ariza topshirganda, Bank, turli xil firibgarlik holatlarining oldini olish maqsadida, mijozga SMS-xabar yoki push-xabar yuboradi. SMS-xabar yoki push-xabar yuborilganidan so'ng, mijoz 48 soat ichida SMS-xabar yoki push-xabarda ko'rsatilgan maxsus telefon raqamiga qo'ng'iroq qilib, qayta tasdiqlash (verifikatsiya)dan o'tishi shart.

3.11. Agar Mijoz 3.10-bandda ko'rsatilgan muddat ichida qayta tasdiqlash (verifikatsiya)dan o'tmagan bo'lsa va/yoki tasdiqlash jarayoni yakunlanmagan bo'lsa, hamda ajratilgan kredit mablag'lari ishlatilmagan bo'lsa, ushbu shartnoma bekor qilinadi va tugatilgan deb hisoblanadi.

IV. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Verifikatsiyalash jarayoni muvafaqqiyatsiz o'tganda va Mijozning kredit to'lov qobiliyati darajasi Bank talablariga muvofiq bo'lmasa, Mijozga Onlayn mikroqarz berishni rad qilish.

4.1.2. Quyidagi hollarda Bank Mijozdan Onlayn mikroqarzni (hisoblangan foizlari bilan birgalikda) muddatidan ilgari so'ndirishni talab qilish huquqiga ega:

a) Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy oferta bo'yicha olingan majburiyatlarning buzilganligi, bajarilmaganligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi;

b) asosiy qarz, foizlar, mazkur Ommaviy oferta shartlaridan kelib chiquvchi boshqa to'lovlarning o'z vaqtida so'ndirilmaganligi;

d) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4.1.3. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra o'z mablag'lari hisobidan Mijozni ogohlantirmagan holda Onlayn mikroqarz so'ndirilmaslik xavfini sug'urtalash huquqiga ega.

4.1.4. Bank Mijozning Bankda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining istalgan boshqa banklarida ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan Onlayn mikroqarz bo'yicha talablarni qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan summani nizosiz tartibda hisobdan chiqarish huquqiga ega.

4.1.5. Mazkur Ommaviy oferta shartlariga va Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy oferta bo'yicha majburiyatlarning ijro etilishiga daxldor bo'lgan ma'lumotlarni Kredit byurosiga taqdim etish.

4.2. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

4.2.1. Mijozga Bank tomonidan ma'qullangan summa doirasida va mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda Kredit olish to'g'risidagi arizada Mijoz tomonidan so'ralgan miqdorda Onlayn mikroqarz taqdim etish.

4.2.2. Mijozga MBXK tizimida olingan summa, joriy qarzдорlik va Onlayn mikroqarzni so'ndirish grafigi to'g'risida axborot taqdim etish.

4.3. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

4.3.1. MBXK tizimida qarzдорlik va Onlayn mikroqarzni so'ndirish shartlari to'g'risida axborot olish.

4.3.2. Oldinda turgan va muddati o'tgan to'lovlar to'g'risida xabar berish bo'yicha MBXK tizimida Bankning elektron xizmatlaridan foydalanish.

4.3.3. Onlayn mikroqarz bo'yicha qarzдорlikni to'liq yoki qisman muddatidan ilgari so'ndirish.

4.4. Mijoz quyidagi majburiyatlarga ega:

4.4.1. To'lovlar grafigiga muvofiq mazkur Ommaviy oferta shartlarida nazarda tutilgan to'lovlarni o'z vaqtida kiritish.

4.4.2. Mazkur Ommaviy oferta shartlariga muvofiq kreditni muddatidan ilgari qaytarish to'g'risida Bankdan talab olingan taqdirda, olingan Onlayn mikroqarzni qaytarish va undan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lash.

4.4.3. Bankka 3 kalendar kun ichida mobil telefon raqami, yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi, Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga ta'sir qiladigan boshqa holatlarning o'zgarganligi to'g'risida xabar berish.

4.4.4. Agar Mijoz tomonidan olingan Onlayn mikroqarz Bank ixtiyoriga ko'ra Onlayn mikroqarz so'ndirilmaslik xavfining sug'urta polisi bilan ta'minlangan bo'lsa, unda sug'urta tashkiloti tomonidan Bankka Mijozning qarzдорligi bo'yicha sug'urta to'voni to'langanda, Mijoz sug'urta tashkilotiga Mijozga nisbatan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq regress tartibda pul mablag'larini qoplashni talab qilish huquqi o'tishiga o'z roziligini bildiradi.

V. ONLAYN MIKROQARZNI SO'NDIRISH TARTIBI

5.1. Mijoz olingan Onlayn mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni MBXK tizimida ko'rsatilgan Onlayn mikroqarz to'lovlari Grafigida ko'rsatilgan muddatlarga muvofiq so'ndirish majburiyatini oladi.

5.2. Onlayn mikroqarz bo'yicha foizlar har kuni asosiy qarz qoldig'iga nisbatan hisoblab boriladi. Foizlarni hisoblash uchun yilni 365 kun deb hisoblash metodidan foydalaniladi.

5.3. Asosiy qarzning muddati o'tgan qismi uchun foiz stavkasi muddati o'tgan birinchi kundan Onlayn mikroqarzning muddati o'tgan qismi to'liq so'ndirilgunga qadar hisoblab boriladi. Asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikka nisbatan foizlar mazkur Ommaviy ofertaning 2.5-bandida ko'rsatilgan stavkada hisoblanadi.

5.4. Onlayn mikroqarz bo'yicha qarzдорlikni so'ndirish Mijoz tomonidan qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan istalgan usullar orqali to'lash yo'li bilan, xususan MBXK tizimi orqali to'lash bilan ham amalga oshiriladi.

5.5. Agar To'lovlar grafigi bo'yicha istalgan to'lov kuni dam olish kuniga to'g'ri kelib qolsa, unda to'lov dam olish kundan keyingi kunga ko'chiriladi.

5.6. Masofadan bank xizmat ko'rsatish tizimida Onlayn mikroqarz qarzдорligini "Jadval bo'yicha kreditni qaytarish" yoki "Muddatidan oldin qaytarish" to'lov turlaridan birini tanlash imkoniyatini mavjud bo'lib, shundan:

"Jadval bo'yicha kredit qaytarish"

Qarz oluvchi "Jadval bo'yicha kredit qaytarish" to'lov turini tanlaganda, belgilangan pul mablag'lari jamg'arma hisobvarag'iga o'tkaziladi va jadvalga muvofiq Onlayn mikroqarz bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish kuni kelganda ushbu pul mablag'lari jamg'armada mavjud bo'lgan summa miqdorida jamg'arma hisobvarag'idan yechib olinadi.

Bunday holda, jadval bo'yicha Onlayn mikroqarz so'ndirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- muddati o'tgan asosiy qarz uchun hisoblangan foizlar (agar mavjud bo'lsa);
- asosiy qarz bo'yicha hisoblangan foizlar;
- asosiy qarz summasi.

"Muddatidan oldin so'ndirish" to'lov turi:

Qarz oluvchining Onlayn mikroqarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорligi bo'lmagan taqdirda, u "Muddatidan oldin so'ndirish" to'lov turini tanlash imkoniyatiga ega.

Agar Qarz oluvchi Onlayn mikroqarzni muddatidan oldin qisman so'ndirish istagini bildirilsa hamda "Muddatidan oldin so'ndirish" to'lov turini tanlasa, Qarz oluvchi tomonidan kiritilgan mablag'lar va jamg'arma hisobvarag'idagi mavjud qoldiq summasi Onlayn mikroqarzning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltiradi.

Bunda, hisoblangan foizlar jadval bo'yicha Onlayn mikroqarz qaytarish muddati kelganda so'ndiriladi.

Onlayn mikroqarz muddatidan oldin to'liq so'ndirilgan taqdirda, belgilangan mablag'lar quyidagi tartibda to'lovlarga yo'naltiriladi:

- to'lov muddati hali kelmagan lekin hisoblangan foizlar;
- Onlayn mikroqarz bo'yicha asosiy qarz summasining qoldig'i.

5.7. Mijoz Bank tomonidan Onlayn mikroqarz bo'yicha to'lovlar dastlabki arizani berishda Mijoz tomonidan ko'rsatilgan uning bank kartasidan, mobil hamyonidan va Bankda ochilgan istalgan hisobvaraqlaridan nizosiz tartibda yechib olinishiga o'z roziligini bildiradi.

5.8. Onlayn mikroqarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikni undirish Bank tomonidan asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik summasini mobil hamyondan, bank kartasidan va Bankda ochilgan istalgan hisobvaraqlardan nizosiz tartibda yechib olish yo'li bilan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- muddati o'tgan asosiy qarzga hisoblangan foizlar;
- muddati o'tgan foizlar;
- muddati o'tgan asosiy qarz.

VI. TARAFLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Bank so'ndirilmagan Onlayn mikroqarz bo'yicha mablag'larning qaytarilishini, barcha hisoblangan foiz to'lovlarini va boshqa qo'shimcha talablarni, shuningdek Mijoz tomonidan Bankka yetkazilgan barcha ziyon va zararlarni qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

6.2. Neustoykaning to'lanishi taraflarni ularga yuklangan majburiyatlarni bajarishdan va huquqbuzarlikni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

6.3. Mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan Mijoz va Bankning javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.

6.4. Sug'urta tashkiloti tomonidan Bankka Onlayn mikroqarz bo'yicha Mijozning qarzdorligi bo'yicha sug'urta to'voni to'langanda, sug'urta tashkilotiga Mijozga nisbatan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq regress tartibda pul mablag'larini qoplashni talab qilish huquqi o'tadi.

6.5. Ushbu ofertadan yoki uning bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar va qarama-qarshiliklar Tomonlar tomonidan o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Agar nizolarni o'zaro muzokaralar orqali hal qilish imkonsiz bo'lsa, Bankning ixtiyoriga ko'ra, ushbu nizolar quyidagi holatlarda yakuniy hal qilinadi:

- Bank/Filialning joylashgan joyi yoki Mijozning yashash joyi bo'yicha malakali sudda;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda notarial ijro hujjatini olish yo'li bilan. Qarzdorlikni undirishda notarial ijro hujjatini olish orqali Mijoz uning haqiqiylikini shartsiz tan oladi.

VII. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Onlayn mikroqarz taqdim etish maqsadida Bank quyidagi faktorlarni inobatga olgan holda Mijozning moliyaviy holatini tahlil qiladi:

- kredit yukining Mijozning joriy moliyaviy holatiga muvofiqligi;
- mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish uchun kutilayotgan pul mablag'lari tushumlarining taxminiy muddatlari va miqdori;
- mazkur Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni imkonsiz qilib qo'yishi mumkin bo'lgan yengib bo'lmas kuch va boshqa holatlarning paydo bo'lish ehtimoli.

7.2. Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan asosiy qarz va foizlarni to'lash bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar buzilganda, Mijoz mazkur Ommaviy ofertaning 2.5-bandida nazarda tutilgan muddati o'tgan asosiy qarz summasiga nisbatan oshirilgan foizni to'lashi lozim, bu esa Mijoz xarajatlari summasining oshishiga va Mijoz kredit tarixining yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

7.3. Mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan hollarda, Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladi.

7.4. Shartnoma Mijoz tomonidan akseptlangan paytda amalda bo'lgan Ommaviy oferta shartlarida tuzilgan hisoblanadi hamda Bank va Mijoz tomonidan o'z majburiyatlari to'liq ijro etilgunga qadar amal qiladi.

7.5. Ommaviy oferta MBXX tizimida e'lon qilingan paytdan e'tiboran va o'zining muddati davomida haqiqiy hisoblanadi.